

COVID-19 NING GLOBAL IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA DAVLATLARNING INQIROZGA QARSHI DASTURLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Temirova Nozima Shuxrat qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyo jabr ko'rgan kasallik Covid-19 ning global iqtisodiyotga ta'siri va davlatlarning inqirozga qarshi kurashi borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Covid-19, ijtimoiy soha, kasallik, salomatlik, inson, pandemiya, virus, siyosat, koronavirus.*

Covid-19 pandemiyasi jahon siyosati va iqtisodiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyo iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyotlar yangi turdagi koronavirus pandemiyasi sababli ulkan qiyinchiliklarga duch keldi. Ijtimoiy soha, sog'liqni saqlash tizimi qiyin kunlarni boshdan kechirdi va bugungi kunda ham ushbu kasallik keltirib chiqargan oqibatlar bilan yuzlashishga majbur bo'lmoqda. Pandemiya hayotning barcha muhim tomonlarini qamrab oldi - inson salomatligidan tortib to ijtimoiy sohagacha. Biologik xatarlar inqirozgacha bo'lgan davrda siyosatchilar va siyosat sohasidagi mutaxassislar tomonidan ustuvor tahdidlardan biri sifatida ko'rilmis edi. Ammo koronavirus inqirozi nafaqat insonlar hayoti uchun, balki global dunyo tartibi uchun ham birdek xavf tug'dirishi tez orada ma'lum bo'ldi.

Koronavirus pandemiyasidan so'ng dunyo siyosati, xalqaro tartib qanday bo'lishi haqida xalqaro munosabatlar sohasi olimlari, siyosatshunoslar, mutaxassislar turli hil nuqtai nazarlarga ega. Qisqa vaqt ichida koronavirus kasalligi (COVID-19)ning global miqyosda keng tarqalishi deyarli barcha davlatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning ta'sir ko'lami kengayishda davom etmoqda.

Ko'plab xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan dunyoda va umuman olganda har bir mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab vaziyat va qiyinchiliklar xarakteri jihatdan oldingi iqtisodiy inqirozlardan farq qilib, ko'lami jihatidan 1929-1932-yillardagi "Buyuk depressiya" dan keyingi eng og'ir holat sifatida qayd etilmoqda.

Xususan, 1929-1932-yillar mobaynida dunyo iqtisodiyoti umumiy hisobda taxminan 15 foizga qisqargan bo'lsa, 2008-2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz natijasida global iqtisodiy o'sish sur'atlari mos ravishda 3 va -0,6 foizni tashkil etgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) joriy yil birinchi yarmid koronavirus pandemiyasi kengayishining to'xtatilishi va ikkinchi yarim yildan boshlab iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich tiklanishi bo'yicha taxminlariga asoslangan bazaviy prognozlariga ko'ra 2020-yilda jahon iqtisodiyoti 3 foizga qisqarishi kutilmoqda. Bunda, iqtisodiy pasayish rivojlangan davlatlarda 6,1 foizni (shu jumladan, AQSH - 5,9 foiz, Yevrozona mamlakatlari - 7,5 foiz) va rivojlanayotgan mamlakatlarda - 1 foizni,

shuningdek, Rossiyada – 5,5 foizni va Qozog‘istonda – 2,5 foizni tashkil etishi, O‘zbekistonda esa 1,8 foizlik iqtisodiy o‘shish prognoz qilinmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan inqirozli holatning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki:

birinchidan, yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat bank va moliya sektoridagi qandaydir inqirozli holat natijasi emas hamda fiskal yoki monetar siyosat orqali uning to‘liq yechimini ta‘minlash imkoniyati cheklangan. Mavjud vaziyat, eng birinchi navbatda “insoniy” yoki “inson sog‘ligi inqirozi” bilan bog‘liq;

ikkinchidan, odatda inqirozlar talab (bank tizimidagi inqiroz va kreditlarning sekinlashuvi, yoki davlat qarzining oshib ketishi natijasida xarajatlarning qisqarishi, daromadlarning kamayib ketishi) yoki taklifning ya‘ni, ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarishi (urush va tabiiy ofatlar, qarz inqirozlari va h.k.) bilan bog‘liq omillarning biri ta‘sirida yuzaga keladi. Amaldagi iqtisodiy vaziyatning murakkabligi, bir paytning o‘zida talab va taklifning qisqarishi bilan izohlanadi;

uchinchidan, koronavirus pandemiyasining to‘xtatilishi va undan keyingi bosqichda cheklovlarning olib tashlanishi hamda ushbu kasallik tarqalishining ikkinchi to‘lqini bilan bog‘liq yuqori darajadagi noaniqliklarning mavjudligi: (a) biznes subyektlari uchun ishlab chiqarish va investitsion loyihalar bo‘yicha; (b) aholining iste‘mol faolligiga; hamda (v) hukumatlar tomonidan fiskal va monetar qo‘llab quvatlash, tashqi va ichki qarzlarni jalb qilish, ijtimoiy himoya hajmi va dasturlarini belgilash borasida aniq qarorlarni qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Global iqtisodiy inqirozning chuqurlashib borishi, shuningdek koronavirus kasalligini butkul yengib chiqish hamda dunyo iqtisodiyotining tiklanishi borasida noaniqliklarning saqlanib qolishi sharoitida respublikada makroiqtisodiy, shu jumladan fiskal, monetar va ijtimoiy siyosatni aniq rejalashtirib olish va amalga oshirish ma‘lum ma‘noda murakkablashadi. Shundan kelib chiqqan holda, qisqa muddatli istiqbolda quyidagi yo‘nalishlar va yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratiladi:

Koronavirus mavjudligi sharoitiga moslashish va bunga tayyorgarlik ko‘rish

Bunda, koronavirus pandemiyasini yengib chiqish muddati va kelgusida (2020-yil kuz oylarida) ushbu kasallik tarqalishining ikkinchi to‘lqinining yuzaga kelish ehtimoli bilan bog‘liq ssenariylarni imkon qadar aniqroq baholash lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda ko‘plab xorijiy mutaxassislar kelgusida insoniyat ushbu virus mavjudligi sharoitida yashashga ko‘nikishi va moslashishi lozimligini qayd etmoqdalar.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, bugungi yuzaga kelgan vaziyatda iqtisodiy qiyinchiliklar an‘anaviy fiskal yoki monetar siyosat instrumentlarni qo‘llash orqali emas balki, eng birinchi navbatda, koronavirusga qarshi vaksina va to‘liq davolash usullari yo‘qligi sharoitida iqtisodiy faollikni bosqichma-bosqich tiklash va ayni paytda ushbu kasallik tarqalishining hamda odamlar sog‘ligiga ta‘sirini minimallashtirish bo‘yicha ishlarning samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida tibbiyot sohasining moddiy- texnik bazasini kuchaytirish, kasallarni qabul qilish va davolash quvvatlarini oshirish, tibbiyot xodimlari soni va malakasini oshirib borish

maqsadlariga tegishli resurslarni shakllantirish orqali kasallikni samarali davolash va insoniy yo'qotishlarni minimallashtirishga asosiy e'tibor beriladi.

COVID-19 pandemiyasi global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Virus tarqalishini nazorat qilish uchun o'rnatilgan keng qamrovli blokirovkalar va cheklovlar ta'minot zanjirlarini buzdi, iste'mol xarajatlarini kamaytirdi va biznes faolligining pasayishiga olib keldi.

Natijada ko'plab mamlakatlar pandemiyaning iqtisodiy ta'sirini yumshatish uchun inqirozga qarshi dasturlarni amalga oshirdi. Bu dasturlar odatda fiskal rag'batlantirish paketlari, pul-kredit siyosatiga aralashuvlar hamda inqirozdan jabr ko'rgan biznes va jismoniy shaxslarni qo'llab-quvvatlash kabi choralarni o'z ichiga oladi.

Inqirozga qarshi dasturlarning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fiskal rag'batlantirish: Hukumatlar davlat xarajatlarini oshirish, soliqlarni kamaytirish va jismoniy shaxslar va korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazmalari kabi turli xil fiskal choralarni qo'lladi. Ushbu chora-tadbirlar yalpi talabni oshirish va iqtisodiy tiklanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

2. Pul-kredit siyosati intervensiyalari: Markaziy banklar foiz stavkalarini pasaytirish va miqdoriy yumshatish kabi kengaytiruvchi pul-kredit siyosatini amalga oshirdilar. Ushbu chora-tadbirlar moliya bozorlarini likvidlikni ta'minlash hamda qarz olish va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

3. Biznesni qo'llab-quvvatlash: Hukumatlar inqiroz davrida biznesni barqaror ushlab turishga yordam berish uchun kreditlar, grantlar va subsidiyalar kabi moliyaviy yordam ko'rsatdi. Ushbu yordam keng tarqalgan bankrotlik va ish o'rinlarini yo'qotishning oldini olishga qaratilgan.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Ko'pgina mamlakatlar ijtimoiy himoya tarmoqlarini kengaytirdi va inqirozdan jabr ko'rgan shaxslar va oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha ijtimoiy ta'minot dasturlarini joriy qildi. Bunga ishsizlik nafaqalari, tibbiy yordam va uy-joy yordami kiradi.

5. Sektorga oid chora-tadbirlar: Hukumatlar, shuningdek, turizm, aviatsiya va mehmondo'stlik kabi pandemiya dan jiddiy ta'sir ko'rsatgan alohida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu chora-tadbirlar sohaga oid grantlar, soliq imtiyozlari va tartibga soluvchi imtiyozlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, inqirozga qarshi dasturlarning o'ziga xos xususiyatlari turli mamlakatlarda ularning iqtisodiy sharoitlari va siyosat ustuvorligiga qarab farqlanadi. Pandemiya rivojlanishi va yangi muammolar paydo bo'lishi bilan hukumatlar o'z strategiyalarini moslashtirish va takomillashtirishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. The Coronavirus Pandemic Will Forever Alter the World Order, URL: <https://www.wsi.com/articles/the-coronavirus-pandemic-will-forever-alter-the-world-order-11585953005>
2. No, the Coronavirus Will Not Change the Global Order, URL: <https://foreignpolicy.com/2020/04/16/coronavirus-pandemic-china-united-states-power-competition/>
3. Коноплева И.А., Коноплева В.С. ПРОЦЕССЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ // The Scientific Heritage. 2021. №58-4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/protsessy-globalizatsii-v-usloviyah-pandemii>
4. Achieving 70% COVID-19 Immunization Coverage by Mid-2022, URL: <https://www.who.int/news/item/23-12-2021-achieving-70-covid-19-immunization-coverage-by-mid-2022>
5. The state we're in: will the pandemic revolutionise the role of government? URL: <https://www.theguardian.com/us-news/2020/apr/26/government-state-role-pandemic-coronavirus>
6. Система международных отношений после COVID-19, URL: <https://www.eurasian-research.org/publication/the-international-relations-system-after-covid-19/?lang=ru>